




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI VA QOZOQ XALQ ERTAKLARIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

UNIVERSAL HUMAN VALUES REFLECTED IN UZBEK AND KAZAKH FOLK TALES

Manzura MASTONOVA,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

magistratura bosqichi talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZMWN9717

Annotation. *This article analyzes the expression of universal human values in Uzbek and Kazakh folk tales. It highlights the close connection of fairy tales with the people's way of life, traditions, worldview, and spiritual-moral values, while also revealing their educational significance. In addition, information is provided about the historical forms of the term "fairy tale" and its usage in different regions. The article also examines the distinctive features of migratory plot tales and presents a comparative analysis of the Uzbek folk tale "Egrivoy and To'g'rivoy" and the Kazakh folk tale "Zhakhshylyk pen Zhamandyk." The research concludes that such values as kindness, honesty, justice, integrity, and humanity are commonly reflected in the folklore of both nations, and that this phenomenon is the result of their historical, cultural, and spiritual closeness.*

Key words: *plot, beginning, ending, image, values, hero.*

Xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biri – ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalar hayotiga xos jihatlar ham o'z aksini topgan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun alohida mo'ljallangan ertaklar ham mavjud. Ertakning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u doimo xalqning turmush tarzi, kurashi, tarixi, ruhiyati, dunyoqarashi hamda urf-odatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi va insonlar uchun ma'naviy-axloqiy yo'l ko'rsatuvchi vazifani bajaradi.

Ertaklarda insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga bo'lgan ishonch kuchli ifodalangan bo'lib, unda ijobiy qahramonlar tabiatdagi va jamiyatdagi yovuz kuchlarga qarshi kurashda doimo ustun keladi. Xalq ertaklari orqali ularni yaratuvchi xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari hamda muhim ijtimoiy masalalarga munosabati o'z ifodasini topadi. Ertaklarning sodda va ravon tilda bayon qilinishi ularni keng kitobxon ommasiga tez yetib borishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular orqali insonning ijtimoiy-axloqiy qarashlari shakllanadi. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

"Ertak" termini "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydi. Bu asar XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan bo'lib, unda "etuk" shaklida qo'llanib, biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir folkloristik termin sifatida "ertak" so'zi qabul etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida "matal" deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi tuman-qishloqlarda, shuningdek, boshqa hududlardagi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida "ushuk" deb ataladi. Xorazmda "varsaki", Toshkent shahri va uning atrofida esa "cho'pchak" termini ham ishlatiladi. O'zbeklar orasida ertak, matal, cho'pchak terminlaridan tashqari yana hikoya, afsona, uydirma kabi atamalar ham uchraydi. [Муродова, 2006: 15]

Xalq ertaklarida el-yurti ko‘z qorachig‘iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug‘lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma‘qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, ephillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari ulug‘lanadi. [Jumaboyev, 2006:10]

Turli xalqlar folklorida bir-biriga yaqin syujet asosida yaratilgan ertaklar tez-tez uchraydi. Bunday asarlar odatda “sayyor syujetli ertaklar” nomi bilan ataladi. Ularning mavzusi hamda obrazlar tizimida muayyan umumiylik kuzatiladi. Shunga qaramay, har bir xalq ertagi badiiy ifoda usuli, qahramonlar talqini va til xususiyatlariga ko‘ra o‘ziga xos farqlarga ega bo‘ladi. Bu ertaklarda muayyan millatning urf-odatlarini, milliy ruhiyati, estetik qarashlari va madaniy an‘analari aks etadi. O‘xshash sujetlarning yuzaga kelishi esa xalqlarning tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotidagi yaqinlik va o‘xshash hayot tarzlari bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, ertaklar kompozitsion qurilishi jihatidan ham diqqatga sazovor bo‘lib, ayniqsa kirish, boshlama va yakun qismlarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ertakning kirish qismi, avvalo, ertak aytuvchining badiiy mahoratini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u tinglovchilar diqqatini o‘ziga jalb etib, ularni voqealar rivojiga tayyorlaydi. Mazkur qismda xalqning hayot tarzi, mehnat faoliyati, olam haqidagi qarashlari hamda tabiatni anglashga doir tasavvurlari badiiy shaklda aks etadi.

O‘zbek va qozoq folklorida umuminsoniy qadriyatlar ko‘plab o‘xshash jihatlar bilan namoyon bo‘ladi. Buning sababi ikki xalqning qadimdan turkiy ildizlarga ega qardosh xalqlar sifatida shakllanganidadir. Ularning yashash tarzi, urf-odatlarini, an‘analari, milliy qadriyatlari va madaniy qarashlari bir-biriga yaqin bo‘lgani bois og‘zaki ijod namunalarida ham umumiy g‘oyalar keng aks etadi. Xususan, ezgulik, rostgo‘ylik, adolat, mehr-shafqat va insoniylik kabi fazilatlar har ikki xalq ertaklarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bu holatni o‘zbek xalqining “Egrivoy va To‘g‘rivoy” ertagi hamda qozoq xalqining “Жақсылық пен жамандық” ertagi misolida yaqqol kuzatish mumkin. Syujet qurilishida ayrim tafovutlar mavjud bo‘lsa-da, ertaklarning g‘oyaviy yo‘nalishi va obrazlar tizimi o‘zaro mushtarakdir. Har ikki asarda yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash markaziy o‘rin egallaydi. Voqealar rivojida halol, pokiza va sabrli qahramonlarning g‘alaba qozonishi, yovuz va makkor obrazlarning esa jazoga duchor bo‘lishi tasvirlanadi.

Qahramonlarning fe‘l-atvori va xatti-harakatlari orqali xalqning axloqiy mezonlari, ezgulikka bo‘lgan ishonchi hamda adolatni ulug‘lash g‘oyalari ifodalanadi. Bu esa o‘zbek va qozoq xalqlarining ma‘naviy qarashlari, tarbiyaviy tamoyillari hamda hayot falsafasi o‘rtasida yaqinlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, ikki xalq folkloridagi o‘xshashliklar nafaqat til va madaniyat mushtarakligi, balki tarixiy va ma‘naviy birlikning ham mahsuli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklari o‘zbek va qozoq xalqlarining boy ma‘naviy merosi hamda milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim folklor janri hisoblanadi. Ertaklar orqali xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va estetik qarashlari badiiy shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, adolatning tantanasi, halollik, mehnatsevarlik, vafodorlik va insoniylik kabi fazilatlarining ulug‘lanishi ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot davomida o‘zbek va qozoq xalq ertaklari o‘rtasida syujet, obraz va g‘oyaviy yo‘nalish jihatidan ko‘plab mushtarakliklar mavjudligi aniqlandi. “Egrivoy va To‘g‘rivoy” hamda “Жақсылық пен жамандық” ertaklari misolida ikki xalq folklorida umuminsoniy qadriyatlar o‘xshash badiiy talqin orqali ifodalanangandligi kuzatildi. Bu esa

o‘zbek va qozoq xalqlarining tarixiy ildizlari, madaniy yaqinligi va ma’naviy birliklari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shuningdek, ertaklarning sayyor syujet asosida shakllanishi xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Har bir xalq ertagi o‘ziga xos milliy ruh, til va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib tursa-da, ularning negizida insonni ezgulikka chorlovchi umumiy g‘oyalar mujassamdir. Shu bois xalq ertaklari bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Jaqsılıq pen Jamanlıq” ertägisi // Qazaqşa ertägiler jinağı.
2. Jumaboyev, M. Bolalar adabiyoti va folklor. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – Toshkent, 2006.
3. Madayev, O., Sobitova, T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent, 2010.
4. Murodova, M. Folklor va etnografiya. – Toshkent, 2006.
5. O‘zbek xalq ertaklari I. – Toshkent, 2013.

